

GLOBALIZATSIYANING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI

Iklamova Munisa

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Iqtisodiyot fakulteti talababasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada globalizatsiyaning O'zbekiston iqtisodiyotiga ko'rsatgan ijobiy va salbiy ta'siri, xususan, tashqi savdo, investitsiyalar, texnologik rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, global iqtisodiy integratsiyaning O'zbekiston milliy iqtisodiyotini rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirishdagi o'rni o'rganib chiqiladi va uni yanada takomillashtirish uchun tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Globalizatsiya, integratsiya, investitsiyalar, transmilliylashuv, modernizatsiyalashuv, investor, erkin iqtisodiy zona, eksport

Аннотация: В данной статье анализируется положительное и отрицательное влияние глобализации на экономику Узбекистана, в частности процессы внешней торговли, инвестиций и технологического развития. Вместе с тем рассматриваются положительные и отрицательные аспекты влияния глобальной экономической интеграции на развитие и повышение конкурентоспособности национальной экономики Узбекистана, а также предлагаются рекомендации по её дальнейшему совершенствованию.

Ключевые слова: глобализация, интеграция, инвестиции, транснационализация, модернизация, инвестор, свободная экономическая зона, экспорт.

Annotation: This article analyzes the positive and negative impact of globalization on the economy of Uzbekistan, particularly the processes of foreign trade, investment, and technological development. In addition, the role of global economic integration in developing the national economy of Uzbekistan and increasing its competitiveness is examined. Based on the research findings,



practical recommendations for further improvement of these processes are proposed.

Key words: globalization, integration, investments, transnationalization, modernization, investor, free economic zone, export.

Hozirgi kunda dunyoda globallashuv jarayonlari jadallashib, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar tobora kengayib bormoqda. Globallashuv davlatlar o'rtasida savdo-sotiq, investitsiya va texnologiyalar almashinuvining kuchayishiga xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, globallashuv jarayonlari O'zbekiston iqtisodiyotiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatib, mamlakatning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvini tezlashtirmoqda.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng jahon iqtisodiy hamjamiyati bilan hamkorlikni rivojlantirish, tashqi savdo aloqalarini kengaytirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etishga katta e'tibor qaratdi. Natijada mamlakat iqtisodiyotida yangi ishlab chiqarish tarmoqlari shakllanib, zamonaviy texnologiyalar joriy etilmoqda. Globallashuv jarayoni, ayniqsa, sanoat, xizmat ko'rsatish, transport-logistika va raqamli iqtisodiyot sohalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

XXI asrda globallashuv jahon mamlakatlari orasida o'zaro iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy va texnologik almashinuv jarayonlarining asosini tashkil qiladi. Mustaqillikka erishgach, O'zbekiston rivojlanishning asosiy bo'g'inlaridan biri sifatida bozor iqtisodiyotiga o'tishni tanladi va bu o'z navbatida milliy iqtisodiyotimiz yuksalishiga va transmilliylashuv jarayonining tezlashishiga olib keldi. Xalqaro savdo aloqalarining jadallashishi, raqamli texnologiyalar tizimining joriy qilinishi hamda ishlab chiqarish jarayonining kengayishi O'zbekiston iqtisodiyoti uchun ijobiy va salbiy oqibatlarga sabab bo'lib kelmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotining ochiqlik siyosati, eksportni rag'batlantirish borasidagi islohotlar mahalliy tadbirkorlik subyektlari oldiga jahon bozoriga chiqish vazifasini qo'yimoqda. Jahon bozoriga kirib borish bu oddiy jarayon emas, balki, puxta o'ylangan reja, tadbikorlar uchun qulay imkoniyatlar yaratish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish negizida shakllanuvchi jarayon





hisoblanadi. Milliy yuksalish davri 2017-yildan boshlab Prezident Shavkat Mirziyoyev yetakchiligidagi ishlar, jumladan, eksport-import aloqalarini rivojlantirish, xalqaro investitsiyalarni jalb etish, savdo sharoitlarini yaxshilash; milliy iqtisodiyotimizning jahon bilan integratsiyasini tezlashtirdi.

Tadbirkorlik sohasidagi islohotlar natijasida O'zbekiston uchun jahon savdo yo'llari eshiklari ochildi, yangi bozorlar va yangi xaridorlarga mahsulot yetkazish imkoniyati yaratildi. Mahsulotlar sifatini oshirish hamda jahon standartlariga javob bera oladigan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi ortdi. Natijada O'zbekiston xalqaro bozorda ham o'z o'rniga ega bo'la boshladi. Jumladan, 2018-yil statistikasiga ko'ra, tashqi savdoda eksport hajmi 10,9 milliard dollarni, import hajmi esa 17,3 milliard dollarni tashkil etgan. 2024-yilga kelib esa bu ko'rsatkichlar eksportda 23 milliard dollarni, importda esa 37,3 milliard dollarni tashkil etdi. Ko'rishimiz mumkinki, 2017-yildan keyin chet el bilan olib borilgan ochiq siyosat, xalqaro diplomatik va iqtisodiy muzokaralar hamda mustahkam hamkorlik natijasida O'zbekistonga olib kirilgan va eksportga yo'naltirilgan tovarlar hajmi 6 yil ichida qariyb ikki barobarga oshgan.

Globalashuv jarayonining milliy iqtisodiyotimizga ijobiy ta'siri eng avvalo yangi ish o'rinlarining yaratilishi, raqobat muhitining yaxshilanishi, xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi va raqamli texnologik modernizatsiyalashuvda namoyon bo'ladi. Avvallari mamlakatimiz iqtisodiyoti asosan xomashyo bazasi sifatida faoliyat yuritib, tabiiy resurslarni eksport qilishga ixtisoslashgan edi. Xususan, mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston paxta, oltin, tabiiy gaz hamda rangli metallar eksport qiluvchi davlat sifatida jahon bozorida ishtirok etgan. Bugungi kunda esa iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o'zgarishlar natijasida xomashyo eksportiga qaramlikni kamaytirish, qo'shimcha qiymat yaratishga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish ustuvor yo'nalish etib belgilandi. Natijada to'qimachilik va yengil sanoat, maishiy texnika ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash kabi tarmoqlar jadal rivojlanmoqda.

Hozirgi bosqichda mamlakatimiz nafaqat xomashyo yetkazib beruvchi, balki tayyor va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqaruvchi davlat sifatida jahon

bozorida “O‘zbekiston” brendi bilan munosib o‘rin egallashga intilmoqda. Ayniqsa, “Harakatlar strategiyasi” da investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish borasida qator ko‘rsatmalar berib o‘tilgan. E’tibor beradigan bo‘lsak, investorlar uchun qulay biznes-muhit, soliq tizimidagi imtiyozlar tufayli 2017-yildagi 14 mlrd \$ investitsiya hajmi 2025-yilga kelib 43,1 mlrd \$ ni tashkil qilgan bo‘lsa, erkin iqtisodiy zonalar soni 3 tadan 22 taga yetkazilgan.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot rivojlanishi barcha sohalar rivoji bilan chambarchas bog‘liq desak mubolag’a bo‘lmaydi. Raqamli iqtisodiyotning afzalligi, birinchi navbatda, bu iqtisodiyot turi barcha sohalarda qog‘ozbozlikga chek qo‘yilishiga, barcha jabhalardagi faoliyatlarning avtomatlashtirilib, shaffof muhit paydo bo‘lishiga olib keladi. So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalardan faol foydalanish natijasida aynan iqtisod sohasida inson omili kamayganligi tufayli korrupsion holatlarning sezilarli darajada pasayganligini, onlayn to‘lov tizimining joriy qilinganligini, raqamli texnologiyalarning nafaqat moliya va bank tizimi, balki, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish sohalariga ham integratsiyalashayotganini ko‘rishimiz mumkin.

Globallashuv jarayoni ijobiy natijalar bilan bir qatorda salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqaradi. Ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi, xalqaro raqobat tufayli mahalliy ishlab chiqaruvchilarning faoliyatiga zarar yetishi, yirik korporatsiyalar va xalqaro moliya institutlari ta’siriga tushib qolish ya’ni iqtisodiy qaramlikning vujudga kelishi shular jumlasidandir.

Shuningdek, globallashuv sharoitida jahon bozoridagi iqtisodiy inqirozlar va narxlarning keskin o‘zgarishi milliy iqtisodiyot barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Tashqi bozorlarga haddan tashqari bog‘liqlik eksport hajmining qisqarishiga hamda valyuta tushumlarining kamayishiga olib keladi. Shu bois globallashuv jarayonida milliy manfaatlarni himoya qilish, ichki ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash va iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.



Yaponiyaning Tokyo universiteti doktoranti Bekzod Zokirovning so'zlariga ko'ra O'zbekistonning global iqtisoddagi muvaffaqiyati u qurayotgan iqtisodiy model bilan bog'liq. O'zbekiston iqtisodiyotining kelajagi doimo o'zgarishlarga tobe xomashyo mahsulotlari eksportchisi bo'lib qolish yoki yuqori qiymatli mahsulot ishlab chiqarib, xalqaro savdoning qon tomiri bo'lgan global ta'minot zanjiriga qo'shilishiga bog'liq. Dastlabki yillarda O'zbekiston arzon ishchi kuchi va xomashyo eksport qilganligi lekin hozirgi kunda jahon bozorida talab kamligi tufayli O'zbekiston o'z kelajagini faqat «arzon ish haqi orqali investitsiya chaqirish» strategiyasiga bog'lamasdan, ixtisoslashgan ishlab chiqarish, ta'lim va ilmiy tadqiqotlarga mablag' ajratish orqali xizmatlar eksport qilishga e'tibor berishi darkor.

Darhaqiqat, O'zbekiston rivojlanayotgan davlat sifatida globalizmning oqibatlarlari tufayli kelib chiqadigan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf etishi, kapital oqimini doimiy tartibga solib turishi va uzoq muddatga mo'ljallangan iqtisodiy siyosat ishlab chiqishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, XXI asr globallashtirish jarayoni O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyotining muhim omiliga aylandi. Kelgusida O'zbekistonning barqaror rivojlanishi nafaqat investitsiyalar hajmini oshirishga, balki innovatsion iqtisodiyotga o'tish, ilm-fan va ta'limni rivojlantirish, raqamli transformatsiyani chuqurlashtirish hamda global ta'minot zanjirlarida munosib o'rin egallashga bog'liq bo'ladi. Faqat shundagina mamlakatimiz globallashtirish sharoitida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlab, raqobatbardosh va yuqori daromadli iqtisodiyotga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yoriyeva D. O. GLOBALLASHUV SHAROITIDA KORXONALARNING TASHQI BOZORLARGA KIRIB BORISHIDA MARKETING STRATEGIYALARINING ROLI VA MILLIY BRENDLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI //Taraqqiyot Spektri. – 2026. – T. 2. – №. 1. – C. 412-427.

2. Zokir o'g'li K. R., Mirzohidjon o'g'li H. O. GLOBALIZATSIYA VA MILLIY O'ZLIK MUAMMOSI //Global Science Review. – 2025. – T. 6. – №. 1. – C. 159-163..

3. Bekmuratovich N. K. O 'ZBEK MADANIYATI VA GLOBALIZATSIYA: MILLIY AN'ANALAR QANDAY SAQLANIB QOLMOQDA? //«ЗА НАИВЫСШИЕ ЗАСЛУГИ». – 2024. – T. 1. – №. 1.

4. Gulbahor A., Sayyora A. RAQAMLI IQTISODIYOTNING O 'SISH SUR'ATLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI STATISTIK BAHOLASH //TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G 'OYALAR. – 2025. – T. 1. – №. 8. – C. 959-963.

5.Kun.uz. Globallashuv kuchayishining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri qanday bo'ladi?. <https://kun.uz/84358638#!>